



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 3 - mart

89-11-0-Q/23

Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimligining 2023 yil I yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmonida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil I yarim yillik ish rejasini to‘g‘risida” 2023 yil 14 fevraldagi 11/73-son bayoni talabi hamda hokimlik zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini ta‘minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil I yarim yillik ish rejasini to‘g‘risida”gi 2023 yil 14 fevraldagi 11/73-son bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati hokimligining 2023 yil I yarim yillik ish rejasini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagi muhim hujjatlar ijrosini ta‘minlash viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh va kotibiyatlar, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalari etib belgilansin:

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat

Dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 22 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi va unda belgilab berilgan oltita asosiy ustuvor yo‘nalishlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish to‘g‘risida” 2021 yil 10 fevraldagi PF–6166-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021 yil 31 maydagi PQ–5132-son qarori;

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashriflaridagi uchrashuvlar va yig‘ilishlaridagi ma‘ruzasi;

viloyat hokimligining Davlatimiz rahbari huzuridagi hisobotlari bo‘yicha 2023 yil va kelgusi yillar uchun topshiriqlar bayonnomalari;

2023 yil I yarim yillikda viloyat hokimligi, boshqarmalar, idoralar va tumanlar hokimliklari tomonidan viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan vazifalarni bajarish, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan topshiriqlarni ijrosini ta‘minlash, shu jumladan, Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida, hududlarni rivojlantirishda ishni “mahallabay” va “xonadonbay” tashkil etish, ixcham va samarali davlat boshqaruv tizimiga o‘tish, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” asosida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish va muqobil energetika manbalaridan keng foydalanish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 2023 yil I yarim yillik uchun ish rejasida belgilangan vazifa va topshiriqlar.

4. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, maslahatchilari va yordamchilariga

viloyat boshqarmalari, tuman va shaharlar hokimlari bilan birgalikda:

viloyat hokimligining 2023 yil I yarim yillik ish rejasining bajarilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlarining bajarilishini ta'minlashda ijro intizomiga qat'iy rioya qilish va uni yanada mustahkamlash;

uch kun muddatda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturida belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha, hududlarni rivojlantirishda ishni "mahallabay" va "xonadonbay" tashkil etish, "Inson qadri uchun" tamoyilini hayotning barcha jabhalariga keng tatbiq etish, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" asosida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlarni rivojlantirish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e'tiborni qaratgan holda boshqarmalar hamda shahar va tumanlar hokimliklarining 2023 yil I yarim yilligi uchun ish rejalarini tasdiqlash topshirilsin.

5. Viloyat hokimligining 2023 yil I yarim yillik Ish rejasi quyidagi talablariga qat'iy rioya etilsin:

a) **2023 yil 30 iyungacha qadar** - tegishli boshqarmalar, idoralar, shahar (tuman)lar hokimliklarining 2023 yil I yarim yillik ish rejalarini tartibga solish bo'yicha kompleks tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirish;

b) **doimiy va tizimli asosda** – hokimliklar apparati va idoraviy mansub tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomining holatini tanqidiy o'rganib chiqilishini (ishlab chiqilgan reja-jadvalga muvofiq) ta'minlash;

v) **2023 yil 15 iyulga qadar** viloyat hokimligi apparatining tegishli tarkibiy bo'limlariga 2023 yil I yarim yillik ish rejasining bajarilishi to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni taqdim etish topshirilsin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo'linmalari, guruh rahbarlari va kotibiyat mudirlariga:

viloyat hokimi va uning o'rinbosarlari rahbarlik qiladigan amaldagi komissiyalar (kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar) faoliyatini, ularning maqsadli vazifalarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarilishini tashkil qilish;

yagona idoralararo ijro intizomi elektron tizimi (Ijro.gov.uz) orqali kelib tushgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijrosini o‘z muddatida sifatli va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash, ushbu jarayonlarda hujjatlarning amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq to‘g‘ri rasmiylashtirilishiga alohida e‘tibor qaratish;

2023 yil I yarim yillik ish rejasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumati, viloyat hokimi topshiriqlari hamda funksional vazifalardan kelib chiqqan holda oylik ish rejalarini samarali va oqilona rejalashtirish, komplekslar tarkibiga kiruvchi boshqarma, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklarining ishlari rejalashtirilishiga, ularning har oylik ish rejaları tasdiqlanishi va bajarilishi natijadorligiga nisbatan talabchanlikni kuchaytirish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

Vazirlar Mahkamasining tegishli departamentiga 2023 yil 15 iyulga qadar - 2023 yil I yarim yillik ish rejasining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotni va 2023 yil II yarim yillik ish rejasi loyihasi yuzasidan takliflar taqdim etsin.

7. Belgilab qo‘yilsinki, viloyat hokimining o‘rinbosarlari, yordamchi va maslahatchilari, hokimlik apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari ish rejada belgilab qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq bajarilishini ta‘minlash bo‘yicha shaxsan mas‘uldirlar.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining sohalar bo‘yicha barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



X.Bozarov

Farg‘ona viloyat hokimining
2023 yil 3 martdagi
89-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona viloyati hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyatining 2023 yil 1-yarim yillikka mo‘ljallangan**

I S h R E J A S I

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas‘ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
I. 2023 yil I yarim yillikda 2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chikadigan ustuvor vazifalari			
1.	2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2023 yil I yarim yillik Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan majlislar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni sifatli bajarilishini ta‘minlash	2023 yil I yarim yillik Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
3.	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shuningdek, shahar va tuman hokimliklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashriflari yakunlari bo'yicha tasdiqlangan yig'ilish bayonnomalaridagi topshiriqlarni so'zsiz va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 31 maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlarni asoslovchi hujjatlari bilan belgilangan muddatlarda taqdim etish hamda ijro.gov.uz tizimiga kiritilishini ta'minlash	Doimiy, Belgilangan muddatlarda	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari
5.	"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4904-sonli Farmonida belgilab berilgan vazifalarga qat'iy amal qilgan holda kotibiyatga kelib tushgan murojaatlarni <u>to'liq, xolis va o'z muddatlarida</u> ko'rib chiqilishini tashkil etish.	Doimiy	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari
II. Makroiqtisodiy tahlil, tarkibiy o'zgartirishlar, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda byudjet, soliq va bojxona siyosatini muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha			
6.	Farg'ona viloyatida 2023 yilning I-yarim yillik uchun belgilangan viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga so'zsiz erishilishini ta'minlash bo'yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, kotibiyat mutaxassislari
7.	Viloyat, shahar va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2022-yil yakunlari hamda yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va hisobotlarni tayyorlash.	2023 yil Yanvar-aprel	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, M.Saydullaev, F.Axmadjonov

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
8.	Farg'ona viloyatida to'rtinchi va beshinchi toifalarga kiritilgan tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mavjud zaxiralardan samarali foydalanish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "yo'l xarita"lari ijrosini muvofiqlashtirish va har oy yakuni bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va hisobotlarni tayyorlash.	Tasdiqlangandan so'ng har oyning 10 sanasiga	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, M.Saydullaev, F.Axmadjonov
9.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 30 dekabrda PQ-471-son qarorida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil yanvar-iyun	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, O.Madaminov
10.	Har bir hudud byudjetining kamida 5 foizini "Fuqarolik byudjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga yo'naltirilishini ta'minlash.	2023 yil yanvar-iyun	Farg'ona viloyatidagi Xalq qabulxonasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi, Xalq deputatlari viloyat kengashi, Kambag'alikni qisqartirish va badlik boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, O.Madaminov
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Davlat Soliq boshqarmasi, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, O.Madaminov
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Xizmatlar soxasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida "gi 2022 yil 27 yanvarda PQ-104-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, M.Saydullaev, F.Axmadjonov
13.	Ishlab chiqarish hajmini yanada ko'paytirish orqali aholini kafolatlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, yetarli miqdorda zahira yaratish hamda narx-navo barqarorligini ta'minlash choralari ko'rish. Dehqon bozorlarida asosiy turdagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narx-navosini asossiz oshib ketishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va kunlik nazorat o'rnatish.	Doimiy	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, F.Axmadjonov
14.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022 yil 27 apreldagi PF-122-son Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Bojxona boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, F.Axmadjonov

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
15.	Bank tizimida yuzaga kelgan muammoli kreditlarning tizim barqarorligiga ta'siri va muammoli kreditlarni kamaytirish yuzasidan tijorat banklari hamda mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Markaziy bank bosh boshqarmasi, tijorat banklari, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
16.	Vazirlar Mahkamasining "Asosiy turdagi oziq-ovqat va zarur mahsulotlar narxlari barqarorligini ta'minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 19 dekabrda 716-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, F.Axmadjonov
III. Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish hamda davlat-xususiylashtirish sheriklik, raqobat va moliya bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha			
17.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasining oltinchi yo'nalishida belgilab berilgan topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatda 2023 yilda 297 ta korxonalarini savdoga chiqarish choralarini ko'rish. <u>Sotib olingan davlat aktivlarini ishga tushirilishi, investitsiya majburiyatini bajarilishi va yangi ish o'rinlarini yaratilishini tahlil qilish</u>	2023 yil davomida	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
18.	Xususiylashtirishni natijadorligi hamda byudjet parametrlarini bajarilishini tahlil qilish.	2023 yil I yarim yillik	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
19.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla byudjeti" tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022 yil 26 dekabrda PQ-458-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kambag'allikni qisqartirish va banklik va boshqa mas'ul boshqarmalar, M.Saydullaev, O.Madaminov
20.	"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va qonunosti hujjatlari talablariga rioya etgan holda xaridlar tegishli ravishda axborot portaliga e'lonlar joylashtirilishi, shuningdek, tender, tanlov va auksionsiz to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar tuzilishini oldini olish.	2023 yil I yarim yillik	G'aznachilik boshqarmasi, Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi va boshqa mas'ul boshqarmalar, M.Saydullaev, O.Madaminov
IV. Mahallabay ishlash orqali bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yer munosabatlarini tartibga solish masalalari bo'yicha			

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
21.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-29-sonli Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
22.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
23.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi 2022 yil 30 dekabrda PF-101-son Farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleksi tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
24.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvarda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarorida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, tijorat banklari, mas'ul viloyat boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
25.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 20 oktyabrda PQ-405-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2023 yil I yarim yillik	Kadastr agentligi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, F.Axmadjonov
26.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 iyunda "Farg'ona viloyatining Uchko'prik tumanida yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni, logistika va savdo tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5127-sonli qaror ijrosini ta'minlash yuzasidan Uchko'prik tumani "Boboshbek" MFYda yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, logistika va savdo kompleksini tashkil etish ishlarini bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023 yil I yarim yillik	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, tegishli mas'ul boshqarma va tashkilotlar, Uchko'prik tuman hokimligi M.Saydullaev, F.Axmadjonov

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
27.	2023 yil mobaynida har bir tuman va shaharda 2022 yil ko'rsatkichdan kam bo'lmagan miqdorda tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etilish chora-tadbirlarini amalga oshirish.	2023 yil Yanvar-iyun	Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, Davlat soliq boshqarmasi, tegishli topshiriqlarning ijrosiga mas'ul etib belgilangan boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, S.Sodikov
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022 yil 15 dekabr kuni bo'lib o'tgan 79-sonli videoselektor yig'ilishida 2023 yil aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish dasturi doirasida 2023 yilda 542,3 mingta yangi ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlash.	2023 yil davomida	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi, Qishloq xo'jaligi boshqarmasi barcha mas'ul boshqarma va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
29.	Hududlarda yashirin ish o'rinlarida legallashtirish bo'yicha 2023 yil uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash, tahliliy ma'lumotlar kiritish.	Har oy yakuni bilan	Viloyat Davlat soliq boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
30.	Fuqarolar 67 ta xizmat turlari orqali soliq organlari tomonidan ro'yxatdan o'tishi orqali o'zini o'zi band qilish chora-tadbirlarini ko'rish.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat Davlat soliq boshqarmasi, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
31.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 iyundagi "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5140-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash	2023 yil I yarim yillik	Viloyat hokimligining moliya-iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish masalalari kompleks tarkibiga kiruvchi boshqarma va tashkilotlar, shahar va tumanlar hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
32.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 sentyabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4829-sonli qarorida belgilangan vazifalarni natijadorligi tahlil qilish.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg'ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev

№	Ustuvor vazifalar, bajariladigan ishlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
33.	2023 yilda tashqi mehnat migratsiyasi yo'nalishida amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha har bir hudud bo'yicha aniq prognoz ko'rsatkichlar bo'yicha “Yo'l xarita” lar ishlab chiqish, tasdiqlash va ijrosini belgilangan muddatlarda bajarilishini nazoratga olish.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg'ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
34.	Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini yuritib vatanga qaytgan fuqarolar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023 yil I yarim yillik	Viloyat Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg'ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev
35.	“Ishga marhamat” va kasb-hunarga o'qitish markazlarida tashqi mehnat bozorida yuqori talabga ega bo'lgan yangi kasblar bo'yicha o'quv kurslarni tashkil etish	2023 yil I yarim yillik	Viloyat Bandlik bosh boshqarmasi, Tashqi mehnat migratsiyasi Farg'ona filiali, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi, Sado-sanoat palatasi hududiy boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari M.Saydullaev, A.Abdullaev

Farg‘ona viloyati hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyatining 2023 yil I yarim yillikka mo‘ljallangan

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
1a. Kotibiyatning 2023 yilning I yarim yilligida 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1.	2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 18 martdagi sog‘liqni saqlash sohasi vakillari hamda 2022 yil 22 avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlaridan kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 iyun kuni Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqadigan hududlarni kompleks rivojlantirish, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasiga tegishli vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
4.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan vazifalarni sifatli amalga oshirish	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
5.	Kotibiyat tarkibiga kiradigan boshqarmalar, davlat idoralari va korxonalar, shuningdek, shahar va tuman hokimliklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg‘ona viloyatiga tashriflari yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan bayonnomalardagi topshiriqlarni so‘zsis va sifatli bajarilishi yozasidan muhokamalar o‘tkazib borish	Har hafta	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
6.	Kotibiyat tarkibiga kiradigan boshqarmalar, davlat idoralari va korxonalar tomonidan Farg'ona viloyati hokimi huzurida o'tkazilgan yig'ilish bayonnomalari topshiriqlarini so'zsiz va sifatli bajarish	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
7.	Farg'ona viloyati hokimi huzurida 2023 yilning yanvar-iyun oylarida o'tkazilishi rejalashtirilayotgan yig'ilish va takdimotlar uchun tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
8.	Qurilish, qurilish industriyasi, kommunal soha, ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish, transport va hududlarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rgangan holda hamda hamkorlikni rivojlantirish va kengaytirishga oid "yo'l xaritalari" da belgilangan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
9.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 10 fevraldagi PF-6166-son Farmoni va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqgida va sifatli amalga oshirish.	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
10.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada Ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 30 dekabrda PF-46-son Farmoni ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, boshqarma, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 30 dekabrda PQ-76-son qarori ijrosini ta'minlash.	I yarim yillik	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, boshqarma, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
12.	Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvdan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.	I yarim yillik	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Moliya bosh boshqarmasi, Savdo-sanoat palatasi, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
13.	Uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha ob'ektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.	I yarim yillik	"Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, "O'zenergonazorat" inspeksiyasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi, boshqarma va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
14.	Renovatsiya va uy-joylar dasturlari asosida shaharlarda 12 ta eskirgan uylar o'rniga zamonaviy uy-joylarni barpo etish hamda "Yangi O'zbekiston" massivlarida 109 ta ko'p qavatli uy-joylarni 4 mingdan ziyod oilaning yangi massivlarga ko'chib o'tishi uchun sharoit yaratish.	I yarim yillik	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, korxonalar va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
15.	"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari" dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish.	I yarim yillik	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasidanazorat qilish inspeksiyasi, Qurilish sohasida buyurtmachi xizmati, korxonalar va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
16.	Viloyat aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini 78 foizga yetkazish, 4 ta shaharlar va 19 ta tuman markazlarida oqova suv tizimlarini yangilash bo'yicha tegishli Dasturlarni ishlab chiqish.	I yarim yillik	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, "Farg'ona suv ta'minot" MChJ va tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
17.	Hududlarda yo'lovchi tashish transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini , transport hamda logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish.	I yarim yillik	Transport boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
18.	“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 15,3 mln tup daraxtlar ekish bo'yicha ekologik nazoratni amalga oshirish.	I yarim yillik	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, boshqarma, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
19.	Ehtiyojmand oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish hamda aholiga kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimini yanada yaxshilash.	I yarim yillik	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi, Moliya bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
20.	Qishloqdan - tuman markazigacha hamda tuman markazidan - viloyat markazigacha transport xizmatlari ko'lamini kengaytirish va ularning sifatini oshirish.	I yarim yillik	Transport boshqarmasi, Viloyat IIB YXXB, Avto yo'l shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
21.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqgisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora- tadbirlar to'g'risida” 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son va “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-son qarorlariga muvofiq mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishini tashkil etish shakllari va usullarini tubdan takomillashtirish , aholi hayoti sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan vazifalarning so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash.	I yarim yillik	Boshqarmalar, idoralar, korxonalar, shahar va tumanlar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
1b. Kotibiyatning 2023 yil I yarim yillikda ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar			
Hududlarni ijtimoiy-iqgisodiy rivojlantirish, davlat chegaralarini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish sohasida			

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
22.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2022 yil 13 sentyabrdagi "Farg'ona viloyatining Uchko'prik, O'zbekiston, Dang'ara, Qo'shtepa, Toshloq, Farg'ona tumanlari va Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona shaharlari chegaralarini o'zgartirish to'g'risida"gi SQ-624-IY-sonli qarori ijrosini ta'minlash.	Mart-aprel	Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, kommunal tashkilotlari, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shahar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
23.	Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish	May	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, Adliya boshqarmasi D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
24.	Hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga tegishli taklif kiritish	Dekabr	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bosh boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Transport boshqarmasi, D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
25.	Davlat chegaralarini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish, shuningdek, chegarabo'yi muammolarini hal qilish masalalari buyicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish.	I yarim yillik	Adliya boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari "Sharq" mintaqaviy shtabi, Bojxona boshqarmasi, Yu.Kamolov
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat topshiriqlari ijrosini nazoratini ta'minlash hamda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha			
26.	Viloyat hokimining o'rinbosari X.Isaqov rahbarligida kotibiyatga biriktirilgan boshqarma va idoralarning yig'ilishlarida sohani isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan choralarni muhokama qilish.	I yarim yillik	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
27.	Har oy yakuni bilan ijro intizomini susaytirib yuborgan boshqarma, idoralar, korxonalar va mahalliy hokimliklar rahbarlarining hisobotlari eshutilishini ta'minlash.	har oy yakuni bilan	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
28.	Har haftada barcha darajadagi topshiriqlar ijrosi va "Ijro.gov.uz" tizimidagi topshiriqlarning bajarilishi holati bo'yicha videoaloqa tizimi orqali. Har 15 kunda bir marta Kompleks rahbari xuzurida har bir boshqarma va idora rahbarlarining ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha hisobotlarini eshitish tizimini davom ettirish.	har hafta bir marta har 15 kunda bir marta	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
29.	Shahar va tuman hokimliklarining apparat yig'ilishlarida kotibiyat mutaxassislari ishtirokini ta'minlash hamda tasdiqlangan grafikka muvofiq boshqarma va mahalliy hokimliklarda bo'lib, nazoratdagi topshiriqlar ijrosini tashkil etish.	Har haftada grafik asosida	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
30.	Kotibiyatga birlashtirilgan boshqarma va idoralar, shahar va tumanlar hokimliklarining ijro intizomiga mas'ul xodimlari uchun viloyat hokimligida stajirovkalarini tashkil etish.	har haftada grafik asosida	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
31.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2023 yillarda Farg'ona viloyatiga tashriflari yakunlari bo'yicha topshiriqlarining ma'lumotlar bazasini shakllantirish va monitoringini yuritish.	I yarim yillik	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
32.	Murojaatlar uchun asos bo'lgan tizimli qoida buzilishlarining sabablarini aniqlash maqsadida Xalq qabulxonalarini bilan birgalikda tahlil qilish, uning yakunlari bo'yicha tizimli qoida buzilishlarining sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etilishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashini yanada takomillashtirish.	I yarim yillik	Kompleksdagi boshqarma, tashkilot va korxonalar, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
Qurilish va ipoteka bozorini rivojlantirish sohasida			
33.	Shaharlar va qishloq aholi punktlarini shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqish.	Fevral	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
34.	Qurilish sohasini texnik tartibga solish hamda qurilish sohasini normativ hujjatlar bilan ta'minlash dasturini shakllantirish va tegishli qaror loyahasini ishlab chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish	Fevral	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
35.	Qurilish sohasida narxlarni shakllantirish va ob'ektlarning smeta qiymatini ekspertizadan o'gkazish tartib-taomillarini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda ushbu jarayonlarni tartibga solishni samarali tizimini joriy etish.	Fevral	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
36.	Shaharlardagi aholining turmush tarzi qulayligini baholovchi "Shaharlar qulayligi" indeksini joriy etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	Mart	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
37.	Shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish, shaharlarni "Aqlli shahar" konsepsiyasiga muvofiq rivojlantirish.	Fevral-iyun	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
38.	Aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, Qurilish va uy-joy kommunal vazirligiga taqdim etish.	aprel	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
39.	Viloyatni shaharsozlikni kompleks rivojlantirishni strategik rejalashtirish, yerdan foydalanishni tartibga solish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini, mashinasozlik, avtomobil transporti va energiya ta'minotini rivojlantirish maqsadida shaharlar va qishloq aholi punktlarini shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqish.	Yanvar-aprel	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi, mutasaddi boshqarma va korxonalar D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
Transport sohasida			
40.	Farg'ona viloyati hokimining "Qo'qon, Marg'ilon va Quvasoy shaharlarida jamoat transporti tizimini rivojlantirish Modeli to'g'risida"gi qarori loyahasini ishlab chiqish.	May	Transport boshqarmasi, Qo'qon, Marg'ilon va Quvasoy shahar hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari

№	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
41.	Farg'ona shahrining transport va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasini ishlab chiqish.	May	Transport boshqarmasi, Farg'ona shahar hokimligi, Farg'ona politexnika instituti D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
42.	Viloyatda transport va logistika xizmatlarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.	aprel	Transport boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
43.	Viloyatda turistlar oqimini ko'paytirishda havo, temir yo'l transporti xarajatlarini kamaytirish, biletlar narxini arzon qilish, yo'llar sifati va infratuzilmasini yaxshilash kabi muammolarning yechimi yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.	Mart	Temir yo'l, Avto yo'l, Viloyat IIB YXXB, "Farg'ona xalqaro aeropoti" MChJ D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
44.	Viloyatda yo'lovchi tashish transporti tizimini tubdan takomillashtirish dasturi loyihasini ishlab chiqish.	1 yarim yillikda	Transport boshqarmasi, Viloyat IIB YXXB, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
45	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-59-sonli qarori qarori ijrosini maqsadli o'rganish.	Iyun	Avtomobil yo'llari boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
46	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashiflari davomida avtomobil yo'llariga oid berilgan topshiriqlarning ijrosini joylarga chiqqan holda	Iyun	Avtomobil yo'llari boshqarmasi, Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati, shahar va tuman hokimliklari D.Mukaramov, kotibiyat mutaxassislari
II. Kotibiyatning 2023 yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarning natijadorligiga oid tahlillari			
Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Davlat chegaralarini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish sohasida			
14.	Kompleksda 2023 yil yanvar-iyun oylarida muddati keladigan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilgan ishlarni tahlil qilish hamda II yarim yillikda har chorak yakuni bo'yicha ijro intizomi monitoringini shakllantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Madaniy meros boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Kinematografiya agentligi viloyat bo'limi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari M.Temirov, J.Tojibaev, A.Xusanov, I.Halimbekov, D.Mirzaakbarov

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
15.	Kompleks tarkibidagi boshqarma va tashkilotlar rahbarlarining 2023 yil I yarim yillik uchun shaxsiy ish rejalari ishlab chiqilishini ta'minlash va viloyat hokimiga axborot bergan xolda tasdikdash uchun taqdim etish. Bunda, I yarim yillik uchun shaxsiy ish rejalarda belgilangan vazifalarga erishish uchun xaftalik va oylik ish rejalari tasdiqlab olish va o'z muddatida ijrosini ta'minlab borish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Madaniy meros boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Kinematografiya agentligi viloyat bo'limi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari M.Temirov, J.Tojibaev, A.Xusanov, I.Halimbekov, D.Mirzaakbarov
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, hududlarga tashrif bayonnomalarida, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va topshiriqlarida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar natijadorligini o'rganish maqsadida grafik asosida tuman (shahar) hududlarda o'rganish ishlarini tashkil etish. <i>Grafik-reja jadvalini ishlab chiqib, viloyat hokimi tomonidan tasdiqlatish.</i>	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Madaniy meros boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Kinematografiya agentligi viloyat bo'limi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
17.	Kotibiyat tarkibiga kiruvchi mutasaddi boshqarma va tashkilotda ijro intizomi holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqqan holda viloyat hokimiga axborot berish. Bunda, har bir tizim tashkilotda "Ijro.gov.uz", "Edo.ijro.uz" platformalarini samarali ishlatilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimligi kotibiyat mudiri A.Xudoberdiev
III. Viloyatda turizm soxasini rivojlantirish masalalari soxasida			
18.	2023 yilda turizmni rivojlantirish bo'yicha viloyatga jami 2 mln.nafar turistlar tashrifini tashkil etish orqali I-yarim yillikda quyidagi natijalarga erishiladi. Bunda, 1. Xorijiy sayyohlar tashrifini – 156,7 mingga yetkazish; 2. Mahalliy sayyohlar tashrifini – 714,1 mingga yetkazish. 3. Turistik eksport xajmi – 30 mln.dollarga yetkazish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
19.	2023 yilda 2,32 trln.so'mlik jami turizm soxasini rivojlantirish bo'yicha jami 240 ta loyihalarni amalga oshirish orqali I-yarim yillikda quyidagi natijalarga erishiladi. Bunda, I-chorakda umumiy loyiha qiymati 59,9 mlrd.so'mlik 8 ta loyiha; II-chorakda umumiy loyiha qiymati 115,9 mlrd.so'mlik 62 ta loyiha amalga oshiriladi.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
20.	Turizm soxasida 2023 yil davomida jami 240 ta yangi loyihalarni ishga tushirish natijasida 4 492 ta ish o'rinlarini tashkil etish orqali I-yarim yillikda quyidagi ish o'rinlari yaratiladi. I-chorakda 312 ta ish o'rni, II-chorakda 443 ta ish o'rni yaratiladi.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
21.	Farg'ona viloyatida turizm soxasini rivojlantirish va sayohlar oqimini oshirish maqsadida xorijiy va mahalliy axborot vositalari bilan xamkorlik o'rnatgan holda media vakillari uchun viloyatda info-tur tashkil qilish. <i>Info-tur tadbirlari kelishuv va tasdiqlangan grafik asosida amalga oshiriladi.</i>	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
22.	Farg'ona viloyatining turizm jozibadorligini xorijiy davlatlarga targ'ib qilish maqsadida xorijiy OAVlarni keng jalb etish. Bunda, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan kelishuv asosida xorijiy OAVlar jalb qilish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
23.	"Farg'ona marvaridi" turizm katalogini nashr qilish. Bunda, kitob nashr etishni belgilangan tartib asosida amalga oshirish hamda nashr etishni moliyalashtirish manbalari bo'yicha aniq takliflarni viloyat hokimiga kiritish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, tegishli boshqarma va tashkilotlar,
24.	Farg'ona viloyatiga sayohlar oqimini oshirish maqsadida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) hamkorligida "Farg'ona opera" kunlari, "Etno moda" xalqaro festivallarini tashkil etish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
25.	Turizm soxasini rivojlantirishda joriy yilning 13-15-may kunlari Rishton tumani "Xalqaro kulollar markazi"da "Turkiy xalqlar hunarmandchiligi" mavzusida Forumni tashkil etish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, "Xunarmandlar" uyushmasi viloyat boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
26.	Marg'ilon shahrida "O'rta asrlarda Marg'ilon ipak matolarining xalqaro bozordagi ahamiyati" mavzusida ko'rgazma va ilmiy konferensiyasini tashkil etish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, "Xunarmandlar" uyushmasi viloyat boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
27.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi PQ-338-son qaroriga asosan Qo'qon shahrida "Golden Valley Marathon" xalqaro marafonini tashkil etish.	I yarim yillikda	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, "Xunarmandlar" uyushmasi viloyat boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
IV. Madaniyat sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar			
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat soxasini yanada rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Farmon, qaror va farmoyishlari va topshiriqlar ijrosini I-yarim yillikda amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab olish.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, Tuman (shahar) hokimliklari
29.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at soxasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son karorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
30.	Farg'ona viloyatida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining 2023 yil uchun yagona kalendar rejasini ishlab chiqish hamda I yarim yillikda tashkil etiladigan tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazib borishni tashkil etish.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
31.	Farg'ona viloyati tuman (shahar) hududlarida aholimizning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha viloyatimizdagi mavjud davlat teatrlarining spektakllar namoyish etish bo'yicha 2023 yil uchun reja-taqsimotini ishlab chiqish. Bunda, I yarim yillikda tashkil etiladigan spektakl namoyishlarini yuqori saviyada o'tkazib borishni tashkil etish.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
32.	Xorijiy davlatlar va qo'shni mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan malakali va yetuk milliy kadrlarni teatr va kino soxasiga qaytarish hamda ularning faoliyat olib borishi uchun yetarli zarur shart-sharoitlar yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
33.	2023 yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tegishli ishlarni tashkil etish. Bunda, Navro'z bayramini keng nishonlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
34.	Farg'ona viloyatidagi barcha madaniyat muassasalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha I yarim yillikka mo'ljallangan ish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlash va ijrosini nazoratga olish.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
35.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor musiqa Festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida 371-son qaroriga asosan Marg'ilon shahrida "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor musiqa festivalini o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish. Bunda, fevtialni keng nishonlash bo'yicha me'yoriy xujjatlar ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash.	I yarim yillikda	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
V. Madaniy meros, muzeylar va kinematografiya sohalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar			
36.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5150-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning viloyatda ijrosini 2023 yil 1 yarim yillikda ta'minlash borasida chora-tadbirlarni belgilash.	I yarim yillikda	Madaniy meros boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
37.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning viloyatda ijrosini 2023 yil 1 yarim yillikda ta'minlash borasida chora-tadbirlarni belgilash.	I yarim yillikda	Madaniy meros boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
38.	Farg'ona viloyati hokimining 2022 yil 28 sentyabrdagi "Farg'ona viloyatida 2023 yilda hududlardagi mavjud muzeylarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jixozlash hamda muzeylar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 586-01-50-son dasturi belgilangan ustuvor vazifalarning viloyatda ijrosini 2023 yil 1 yarim yillikda ta'minlash borasida chora-tadbirlarni belgilash.	I yarim yillikda	Madaniy meros boshqarmasi, Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati Davlat muzeyi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
39.	Farg'ona viloyatida joylashgan madaniy meros ob'ektlarini asrashga doir ishlarni amalga oshirish maqsadida 2023 yil I yarim yillikda restavratsiya va ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish. Bunda, O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi bilan xamkorlikda ishlarni tashkil etish.	I yarim yillikda	Madaniy meros boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
40.	Madaniy meros va muzey soxalarini yanada rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish orqali ularni viloyatda tatbiq etish bo'yicha takliflar tayyorlash.	I yarim yillikda	Madaniy meros boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
41.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2021 yil 7 apreldagi PF-6202-son Farmonida hamda "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida" 2021 yil 7 apreldagi PQ-5060-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Kinematografiya agentligi viloyat bo'limi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
VI. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari hamda ushbularga asosan viloyat hokimi qaror ijrosini maqsadli o'rganish			
42.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori ijrosi hamda viloyat hokimning 2022 yil 28 fevraldagi 93-11-0-Q/22-son qarori ijrosini o'rganish.	Qaror muddatida	Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari

№	Amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
43.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-sonli qarori ijrosi hamda viloyat hokimning 2022 yil 13 iyundagi 235-11-0-Q/22-son qarori ijrosini o'rganish.	Qaror muddatida	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
44.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-sonli qarori ijrosi hamda viloyat hokimining 2022 yil 27 iyundagi 258-11-0-Q/22-son qarori ijrosini o'rganish.	Qaror muddatida	Madaniy meros boshqarmasi, Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Madaniyat boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
45.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-338-sonli qarori ijrosi hamda viloyat hokimining 2022 yil 15 avgustdagi 327-11-0-Q/22-son qarori ijrosini o'rganish.	Qaror muddatida	Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi, tegishli boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari

**Farg‘ona viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yordamchisi A.Pulatov kotibiyatining 2023 yil
I yarim yillikka mo‘ljallangan**

ISH REJASI

№	Ustuvor vazifalar, o‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, farmonlari va topshiriqlari, Hukumat qaror va farmoyishlari hamda Davlat dasturlarida belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta’minlash			
1.	2022-2026 yillarga mo‘djallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, mas’ul idora va tashkilotlar
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 20 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalarni so‘zsiz va sifatli bajarish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, mas’ul idora va tashkilotlar
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 avgustdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas’uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, mas’ul idora va tashkilotlar
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 iyundagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6244-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, mas’ul idora va tashkilotlar
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6166-son Farmonida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 oktyabrdagi "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-388-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash.	2023 yil mart	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, mas'ul idora va tashkilotlar
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12 oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlariga tegishli tashkilotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-390-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash.	2023 yil mart	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Shahar va tuman hokimliklari, mas'ul idora va tashkilotlar
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022 yil 7 noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 76-sonli bayonida belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Shahar va tuman hokimliklari, mas'ul idora va tashkilotlar
9.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg'ona viloyatiga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnoma topshiriqlarini so'zsiz va sifatli bajarish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Shahar va tuman hokimliklari, mas'ul idora va tashkilotlar
10.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 iyuldagi "Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 392-son qarori asosida ish tashkil qilish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Shahar va tuman hokimliklari, mas'ul idora va tashkilotlar
2. Mahalliy sanoatni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish sohasida			
11.	2023 yilda Farg'ona viloyatida sanoat korxonalarini tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirish loyihalarini o'z vaqtida ishga tushirish va belgilangan prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar "Yo'l xaritasi”da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari, Mas'ul idora va tashkilotlar

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
12.	Farg'ona viloyatining sanoat korxonalarida barqarorlikni ta'minlash, past quvvatda ishlayotgan korxonalarni to'liq quvvatga olib chiqish, faoliyatiz korxonalar faoliyatini qayta tiklash hamda yangi korxonalarni ishga tushirish hisobiga belgilangan sanoat ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari, Mas'ul idora va tashkilotlar
13.	Mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tuman va shaharlar salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish "drayverlari" bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	2023 yil aprel	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
14.	Elektrotexnika, oziq-ovqat, farmasevtika, metallurgiya va mashinasozlik, zargarlik buyumlari, qog'oz sanoati, mebel va uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
15.	Hududlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, alohida sanoat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo'nalishlarni belgilash, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlari samarali joylashtirilishini "xom-ashyo bazasini tahlil qilish - ichki bozor ehtiyojlarini o'rganish - importni tahlil qilish - yangi loyihalarni ishlab chiqish - loyihalarni joylashtirish va amalga oshirish" tamoyili asosida tashkil etish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
16.	"Qo'qon" EIZ va hududlardagi kichik sanoat zonalarini o'rganish, faoliyati samaradorligini baholash, asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda tahlil natijalaridan kelib chiqib, erkin iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatini samarali tashkil etish va kelgusi istiqbollari yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilash, shuningdek, aniqlangan tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan viloyat hokimiga takliflar kiritish.	2023 yil 15 aprel	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, "Qo'qon" EIZ, viloyat kichik sanoat zonasi direksiyasi, Shahar va tuman hokimliklari

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
17.	Sanoat korxonalarini samaradorligini baholash, asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va tahlil natijalaridan kelib chiqib, viloyat sanoatini jadal rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilash maqsadida, barcha sanoat korxonalarini qamrab olgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Statistika boshqarmasi
18.	O'zbekiston tumanini qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi hamda tumanda yirik qurilish materiallari klasterini tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, O'zbekiston tumani hokimligi, "O'zsanoatqurilishbank" ATB viloyat filiali
19.	Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalarni Elektron kooperatsiya portalida ro'yxatdan o'tkazgan holda, ularning ijrosini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
20.	Mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini o'rganib chiqib, elektron kooperatsiya portaliga joylashtirilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari
21.	Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar, xom-ashyo va materiallar ishlab chiqarish borasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlarni ishlab chiqish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
22.	Elektron kooperatsiya portal faoliyatini takomillashtirish va undan foydalanish darajasini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
23.	Hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida mahsulot xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzilishini, shuningdek, ilgari import qilingan mahsulotlarni o'zlashtirish bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar va yirik sanoat tashkilotlari o'rtasida texnik hamkorlik qilish memorandumlari shakllantirilishi hamda shartnomalar tuzilishini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat mudiri, Korxonalar
24.	Viloyatlarda bo'lib o'tadigan Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasiga puxta tayyorgarlik ko'rish va tadbirda salohiyatli sanoat korxonalari ishtirokini ta'minlash.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
3. Importni maqbullashtirish sohasida			
25.	2020-2022 yillar davomida Farg'ona viloyatiga import qilingan va turli muammolar sababli foydalanilmayotgan texnologik uskunalarni ishga tushirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan tadbirlarni viloyat darajasida muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish hamda amalga oshirilayotgan ishlar natijasi yuzasidan har o'n kunda viloyat hokimiga axborot kiritib borish.	Har 10 kunda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari
26.	Viloyatga olib kirilayotgan import mahsulotlar tarkibi va hajmi to'g'risida tahliliy ma'lumotlar tayyorlash hamda viloyat hokimi va Hukumat komissiyasiga kiritib borish.	Har oy yakuni bilan keyingi oyning 10 sanasiga qadar	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Bojxona boshqarmasi, Statistika boshqarmasi
27.	Halqaro tajribani, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini o'rganish asosida importni maqbullashtirish hamda import tovarlarni tarif va notarif talablar asosida boshqarish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligiga kiritish.	Har oy yakuni bilan	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Bojxona boshqarmasi

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
28.	Import hajmlari va tuzilmasini, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini mahalliy lashtirish va modernizatsiya qilish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida respublikada ishlab chiqarilishi o'zlashtirilgan mahsulotlar importini qisqartirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	Har chorak yakuni bilan	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Statistika boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
29.	Import tahlillari natijasida o'zlashtirish imkoniyati mavjud mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish hamda loyihalarni shakllantirish yuzasidan tarmoqlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2023 yil aprel	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari
30.	Import qilingan texnologik asbob-uskunalarni ishga tushirishgacha bo'lgan barcha tadbirlarni viloyat darajasida muvofiqlashtirish va doimiy ravisha monitoring qilish orqali tadbirkorlik sub'ektlari muammolarini muntazam ravishda hal etish choralarni ko'rish.	Har hafta yakuni bilan	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Ishchi guruhlar
4. Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish sohasida			
31.	Hududiy mahalliy lashtirish dasturidagi loyihalarda belgilangan maqsadli parametrlarga erishishning tizimli monitoringini olib borish; monitoring natijalari bo'yicha aniqlangan tizimli muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflarni viloyat hokimligi rahbariyati bilan kelishgan holda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritib borish.	Har oy yakuni bilan	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi, Statistika boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
32.	2023 yilga shakllantiriladigan dastur uchun yangi mahalliy lashtiriladigan loyiha takliflarini shakllantirish maqsadida loyihalar holatini joyiga chiqqan holda o'rganish va takliflarni Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga kiritib borish.	Har chorak yakuni bilan	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari
33.	Import tarkibi va nomenklaturasi tahlili asosida 2023-2026 yillarda yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ni tayyorlash va tasdiqlash.	2023 yil 15 aprel	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi, Shahar va tuman hokimliklari

№	Ustuvor vazifalar, o'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar: Viloyatdagi boshqarma va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari
34.	Mahalliy lashtirish dasturida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlamagan boshqarma, tashkilot, shahar va tuman hokimliklari rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llash to'g'risida Hukumat komissiyasiga kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Har chorakda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov
5. Boshqa yo'nalishlarda			
35.	Viloyatda joylashgan noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va istiqbolli noruda foydali qazilma konlarini o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov, kotibiyat xodimlari, Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasining Farg'ona mintaqaviy inspeksiyasi
36.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-sonli qaroriga asosan viloyat mahalliy byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari hisobidan amalga oshiriladigan va umumiy qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 2 500 baravaridan ortiq bo'lgan davlat xaridlari bo'yicha tenderlarda (komissiya a'zosi sifatida) qatnashish.	I yarim yillikda	Viloyat hokimining yordamchisi A.Pulatov

**Farg‘ona viloyati hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik
va favqulodda vaziyatlar masalalari guruhining 2023 yil I-yarim yillik uchun**

I S h R E J A S I

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas’ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va bayonlarida belgilangan vazifalarni bajarilishini ta’minlash hamda “Ijro.gov.uz” tizimida 31 yanvar kuniga kadar muddati keladigan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash. ish tashkil etilib, kelib tushgan murojaatlarni o‘z vaqtida nazoratdan chiqarish bo‘yicha ish tashkil etildi	Doimiy	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari tegishli boshqarmalar, tashkilotlar, muassasalar, shahar va tuman hokimliklari,
2.	Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muxofaza qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlarlar Mahkamasining Qaror va Farmoyishlari, me‘yoriy hujjatlar talablari hamda yuqori idoralarning mazkur masaladagi ko‘rsatmalarining bajarilishini ta’minlash.	Yanvar-iyun	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning Qurolli Kuchlarga oid Qaror Farmon va Farmoyishlari ijrosini ta’minlash.	Yanvar-iyun	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari
4.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining safarbarlik zaxiralari soxasida qabul qilingan qarorlarni, shuningdek, safarbarlik tayyorgarligi bo‘yicha yuqori idoralarning topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash.	Yanvar-iyun	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
5.	Viloyat hokimligida maxfiy ish yuritishga oid vazifalarni bajarish, shahar va tumanlar hokimliklarida rejimli-maxfiy organi hodimlariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish.	Yanvar-iyun	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari
6.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 sentyabr kungi 565-sonli qarori ijrosini ta'minlash maksadida, viloyatdagi shahar-tuman sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilayotgan jinoyatlar muxokamasini taxlil qilgan holda joylarda sektor rahbarlari bilan tanqidiy muxokamalar o'tkazib borish.	Doimiy	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, viloyat prokuraturasi, IIB, shahar tuman sektor rahbarilari
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligini hamda Vatan ximoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari"gi to'g'risidagi F-92-sonli farmoyishiga asosan viloyatda "Vatan himoyachilari kuni" bayrami tadbirlarini na'munali va yuqori saviyada o'tkazishni tashkil etish	2023 yil yanvar	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, va guruh mutaxassislari, Sharqiy harbiy okrugi, Mudofaa ishlari boshqarmasi
8.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Harbiy xizmatchilarning ovqatlanish tizimi hamda ijtimoiy himoya darajasini tubdan yaxshilash to'g'risida"gi qarorlari ijrosini tashkil etish.	1-yarim yillik davomida	Viloyat harbiy-ma'muriy sektor hududidagi harbiy qismlar, Monopoliyaga qarshi kurash hududiy boshqarmasi, Dehqon bozorlari va savdo komplekslari uyushmasi, Statistika boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari, viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
9.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 noyabrdagi "Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 4-ilova 8-bandida ijrosini ta'minlash maqsadida, bolalarning dam olish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etish:</p> <p>Oromgohlarga olib boruvchi hududlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular haqida ogohlantirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish;</p> <p>oromgothlar va ular joylashgan hududlarda o'rnatilgan tartibda yong'in-texnik tekshiruvi yoki qo'shimcha yong'in-profilaktika ko'riklarini o'tkazish;</p> <p>aniqlangan muammolarning mutasaddi idoralar tomonidan o'z vaqtida va sifatli bartaraf etilishini nazorat qilish;</p> <p>dam olish mavsumida bolalarga xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etiladigan soha mutaxassislarini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;</p> <p>yong'in kelib chiqish darajasi yuqori bo'lgan va binolarining asosiy qismi yog'och konstruksiyalardan tashkil topgan oromgothlarni mutasaddi idoralar tomonidan qo'shimcha ravishda birlamchi yong'in o'chirish vositalari va yong'inga qarshi texnik himoya vositalari bilan ta'minlash hamda binolarga yong'inga qarshi moddalar bilan ishlov berish choralarini ko'rish;</p> <p>yong'in xavfi yuqori bo'lgan oromgothlarning murojaatlari asosida oromgothga mavsum davomida navbatchilik qiladigan yong'in-qutqaruv avtomobillari va malakali xodimlardan iborat guruhlar ajratilishini ta'minlash hamda har bir oromgothga Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini birlashtirish;</p> <p>oromgothlarda ko'rgazmalar bilan ta'minlangan yong'in xavfsizligi va fuqaro muhofazasi burchaklarining tashkil etilishi hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda ishchi-xizmatchilar va bolalarning harakatlanish rejalari ishlab chiqilishini nazorat qilish;</p> <p>statsionar oromgothlarning mavsumga tayyorligini to'liq qayta o'rganib chiqish va aniqlangan kamchiliklarni mavsum boshlangunga qadar bartaraf etish choralarini ko'rish.</p>	mavsum boshlanishidan oldin	<p>Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, va guruh mutaxassislari, IIB, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi, Xalq ta'limi, Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi, Maktabgacha ta'lim boshqarmasi, SSB, SEOM, "Hududgaz Farg'ona" GTF, "Farg'ona xududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ, "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ, Farg'ona Gidrometeorologiya boshqarmasi, Farg'ona xavfli geologik jarayonlarni kuzatish stansiyasi, shahar va tuman hokimliklari</p>

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
10.	Viloyatda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ichki bozor va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini himoyalash maqsadida, viloyatning chegara hududlari orqali tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy olib kirilishini oldini olish borasida tegishli tashkilot va idoralar bilan tizimli ishlarni amalga oshirish.	1-yarim yillik davomida	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, DXX 9114 harbiy qism, Bojxona boshqarmasi, viloyat Prokuraturasi, Prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, shahar tuman hokimliklari.
11.	Viloyat Adliya boshqarmasi hamkorligida "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-3666-sonli qarori asosida, aholini huquqiy madaniyatini yuksaltirish va normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar olib borish.		Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, viloyat Adliya boshqarmasi
12.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118 sonil farmoni ijrosi bo'yicha viloyat Majburiy ijrosi byurosi boshqarmasi tomonidan aliment va ijro hujjatlari yuzasidan undiruvlar (qarzdorliklarni)ni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumotlar olib borish		Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, viloyat Prokuraturasi, viloyat majburiy ijro byurosi boshqarmasi
13.	"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan qarorlarida belgilab berilgan vazifalarga qat'iy amal qilgan holda guruhga kelib tushgan barcha murojaatlarni to'liq, xolis va o'z muddatlarida ko'rib chiqilishini tashkil etish.	1-yarim yillik davomida	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassisleri

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
14.	<p>1996-2005 yillarda tug'ilgan, chaqiruv muddatini uzaytirish huquqiga ega bo'lmagan fuqarolarni mart- aprel oylarida muddatli harbiy, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga chaqirish ishlari amalga oshirilishini mas'ul boshqarmalar, tashkilotlar, muassasalar, shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda tashkillash va unda quyidagi vazifalarni bajarilishini nazorat qilish:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 2023 yil chaqiruviga tayyorgarlik ishlari, hususan, muddatli harbiy xizmatga chaqiriladigan chaqiriluvchilarni o'rganish ishlari me'yoriy hujjatlar talablari asosida tashkil etishni. 2. Viloyat va barcha shahar, tuman tibbiy komissiyalari tarkibiga malaka toifasiga ega bo'lgan tajribali vrach-mutaxassis va kichik tibbiy xodimlar ajratilishini ta'minlashni. 3. Chaqiriluvchilarni o'rganish va saralash ishlari jarayonida chaqiriluvchilarning oilaviy ahvoli, ahloqiy-ruhiy holatlariga asosiy e'tibor berish, mazkur xislatlarga ko'ra muddatli harbiy xizmatni o'ta olmaydigan chaqiriluvchilarni aniqlash va ularni Qurolli Kuchlar safiga chaqirilishiga yo'l ko'yilmasligini. 4. Ob-havoni o'zgarishini inbotaga olgan holda chaqiruv punktlarida o'tin va ko'mir zaxiralarini oldindan tayyorlab qo'yilishini. 5. Viloyat yig'ish punkti, shahar va tuman chaqiruv punktlarida obodonlashtirish ishlarini olib borish, ularni talab darajasida kerakli anjomlar va vrach-mutaxassislarni tibbiy asbob-anjomlar, EKG, UZI, EFGDS apparatlari, dori-darmonlar bilan to'liq ta'minlashni. 6. Shaxsiy tarkib hamda vrach-mutaxassislar orasida jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlash, fuqarolar tomonidan kelib tushayotgan ariza va shikoyatlar mazmun va mohiyatini chuqur o'rganish ishlariga alohida e'tibor qaratilishini. 7. Chaqiruv komissiyalarning chaqiruv punktlariga chaqiruv davomida muntazam kelishlarini ta'minlash va ularga yuklatilgan vazifalarni to'laqonli bajarishlarini. 8. Viloyat hududidagi vokzal va aeroportlarda hokimlik vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, harbiy qism komandirlari, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar, harbiy orkestr va madaniyat xodimlari ishtirokida chaqiriluvchilarni muddatli harbiy xizmatga kuzatish va muddatli harbiy xizmatni o'tab kelgan fuqarolarni kutib olish tantanali tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazilishini. 	2023 yil mart, aprel oylarida	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov, Harbiy ma'muriy sektor raxbari maslaxatchisi M.Yuldashev, Mudofaa ishlari boshqarmasi, Moliya bosh boshqarmasi, shahar va tuman hokimliklari,

№	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ullar: Boshqarmalar, tashkilotlar va idoralar, shaharlar va tumanlar hokimliklari
15.	Viloyatning shahar va tumanlarida 9 may umumxalq bayrami Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga munosib hissa qo'shgan, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining xotirasini abadiylashtirish hamda barcha faxriylarga hurmat-ehtirom ko'rsatish maqsadida o'tkaziladigan bayram tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazilishiga tayyorgarlik ko'rish.	2023 yil aprel, may oylari	viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari Tegishli boshqarmalar, tashkilotlar, muassasalar, shahar va tuman hokimliklari
16.	Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi hamkorligida shahar va tuman hokimliklarning qarzdorliklarini bartaraf etish masalalarini muhokama qilish.		
17.	Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa ekstremal holatlarda tegishli boshqarmalar, tashkilotlar, muassasalar, shahar va tuman hokimliklari ishlarini tashkil etish.	Muntazam ravishda	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari, Taalluqli boshqarmalar, tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari,
18.	O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini delimitatsiya, demarkatsiya va redemarkatsiya qilish, chegaralar yaqinidagi muammolarni hal etish, Respublika hududiga tovarlar va kontrafakt mahsulotlarni noqonuniy olib kirish masalalari bilan bog'liq tadbirlarni belgilangan tartibda tashkil etish.	1-yarim yillik davomida	Viloyat hokimligi guruh rahbari Yu.Kamolov va guruh mutaxassislari, Taalluqli boshqarmalar, tashkilotlar, shahar va tuman hokimliklari,
